

**XITOY TILIDA VOQEYA KO‘CHISHINI IFODALASHDA
FE’L-YO‘NALISH MODELINING AHAMIYATI**



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7334169>

Muxamedjanova Shahbora Kamolovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Xitoy filologiyasi kafedrasи

tayanch doktoranti

shahbora.mukhamedanova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xitoy tilidagi fe’l-yo‘nalish modellarining nazariy masalalari ko‘rib chiqiladi. Jumladan, Fe’l+ 来 [láí] modelining qo‘llanilishiga doir tahlillar keltiriladi. Ma‘lumki, so‘nggi yillarda xitoy tilshunosligida kognitiv tilshunoslik ta’sirida fe’l-yo‘nalish tuzilmalari tadqiqida voqeanning ko‘chishiga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Bu esa o‘z navbatida ularning har ikkisini o‘zaro bog‘lagan holda tadqiqotlar olib borish zaruratini tug‘diradi.

Kalit so‘zlar: fe’l-yo‘nalish modeli, konseptual tuzilma, ko‘chish hodisasi, tashqi ta’sirsiz voqelangan hodisa, ta’sir ostida voqelangan hodisa, harakatlanayotgan jism, yo‘nalish, makon, harakatlanish.

THE SIGNIFICANCE OF VERB-DIRECTION MODEL IN EXPRESSION OF THE EVENT OF MOTION IN CHINESE

Mukhamedjanova Shahbora Kamolovna

Tashkent State University of Oriental Studies

Department of Chinese Philology

3rd year PhD student

shahbora.mukhamedanova@gmail.com

Annotation. This article examines the theoretical issues of verb direction models in Chinese. In particular, analyzes of use of the Verb+ 来 [láí] model are considered. In recent years, in Chinese linguistics, under the influence of cognitive linguistics the main attention is paid to the event of motion in research of verb direction structures. This, in turn, creates the need to conduct research connecting both of them.

Keywords: verb-direction model, conceptual structure, event of motion, event of motion which occurred without external influence, event that occurred under the influence, figure, ground, path, motion.

KIRISH

So‘nggi yillarda harakat yo‘nalishi fe’llarini muayyan matn, nutqiy vaziyat, til egalarining tashqi olam haqidagi umumiy bilimlari va til ko‘nikmalari kabi omillar bilan bog‘liq holda tekshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu yo‘nalishda L. Talmining harakat masalasiga semantik sathda o‘ziga xos nazariya orqali yondashuvi ko‘pgina tadqiqotlarning nazariy asosini belgilagan. Unga ko‘ra, nutqda voqelangan harakat to‘rt asosiy komponentdan iborat: 1) harakatlanayotgan jism (Figure); 2) harakat yo‘naltirilgan jism yoki joy – makon (Ground); 3) harakatning trayektoriya chizig‘i – yo‘nalish (Path); 4) harakat(lanish) (Motion) [Talmy 1985: 61]. Keltirilgan to‘rt komponent nazariyasi sintaktik sath doirasida harakatni baholashi mumkin. Masalan: He went into (the room) – *U xonaga kirdi*; The pencil rolled off (the table) – *Ruchka stoldan dumalab tushdi*.

L. Talmining harakat komponentlari nazariyasiga ko‘ra, yuqoridagi jumllalarda he (*u*), pencil (*ruchka*) harakatni amalga oshirayotgan jism; room (*xona*), table (*stol*) harakat yo‘naltirilgan jism/joy; into (-*ga*), off (-*dan*) – harakatning trayektoriyasi, yo‘nalishi; went (*kirdi*), rolled (*dumalab tushdi*) – harakat sifatida ajratildi.

Van Iguan semantik grammatika, konseptual tuzilmalar va kognitiv metaforalar nazariyalari asosida hozirgi xitoy tilida fe’l-*yo‘nalish* modellari semantikasi va ularning ma’no kengayishi yo‘llarini chuqur va har tomonlama o‘rgandi. Tilshunos avval L. Talmi tomonidan ilgari surilgan harakat hodisasi konseptual tuzilmasini ko‘rib chiqib, hozirgi xitoy tilidagi fe’l-*yo‘nalish* modellarini 5 ta tarkibiy qismga bo‘ldi. Bular ishtirokchi elementlar, makon elementlari (yo‘nalish va pozitsiya), harakat elementlari (harakat yo‘nalishi, ko‘chish, harakat usuli, harakatning yuzaga kelish sababi), yo‘l elementlari (yo‘nalish fe’llari) va subyektiv nuqtayi nazar (来 va 去) dan iborat. U mazkur tarkibiy qismlar asosida fe’l-*yo‘nalish* modelining semantik sxemasini yaratadi: yo‘nalish ma’nosini ko‘chish (joyning o‘zgarish) yo‘nalishi (位移性趋向), holat yo‘nalishi (状态性趋向), vaqt yo‘nalishi (时体性趋向) ga ajratdi [王宜广 2016: 55].

Van Iguan va Gun Lintsyanning [王宜广, 宫领强 2017: 72] ta’kidlashlaricha, yo‘nalish kategoriyasi sistemasi ko‘chish, holat va vaqt yo‘nalishlari deb nomlanuvchi 3 ta kichik tizim o‘z ichiga oladi. Ko‘chish yo‘nalishi, asosan, ish-harakatning boshlang‘ich va tugallangan nuqtasi o‘rtasidagi pozitsiyaning o‘zgarishini; holat yo‘nalishi bo‘linish va aloqa, ko‘rinadigan va ko‘rimas, normal va g‘ayrioddiy, egalik va itoat kabi holatlararo o‘zgarishlarni; vaqt yo‘nalishi esa chekli va cheksiz davomiylikdagi o‘zgarishlarni ifodalash vazifalariga ega.

Quyida xitoy tilida **Fe’l+来 [lái]** modelining ma’no kengayish mexanizmi va funksional xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Ko‘chish hodisasini (位移事件 [*wèiyí shìjiàn*]) ikki turga ajratish mumkin: a) tashqi ta’sirsiz voqelangan hodisa (自移事件 [*zì yí shìjiàn*]); b) ta’sir ostida voqelangan hodisa (致移事件 [*zhì yí shìjiàn*]). Har ikki hodisada “fe’l+来” modeli asosidagi ko‘chish so‘zlovchi (kuzatuvchi subyekt) mavjud bo‘lgan nuqtaga qarab sodir bo‘ladi.

(1) 如果你回来我不在了，那么三天之内，我一定来拿东西。 (《地久天长》王小波。
页 54) [Rúguō nǐ **huílái** wǒ bùzàile, nàme sān tiān zhī nèi, wǒ yīdìng lái ná dōngxī] Agar sen qaytib kelganingda men bo‘lmasam, unda 3 kun ichida, albatta, kelib narsalarimni olib ketaman.

(2) 见她回来了，亲热地拉着她的手。 [王小波 2007: 66] [Jiàn tā **huílái** le, qīnrè dì lāzhe tā de shǒu] Uni qaytib kelganini ko‘rib, mayinlik bilan qo‘lini ushladi.

(3) 我看你先不要回来吧。 [王安忆 2015: 101] [Wǒ kàn nǐ xiān bùyào **huílái** ba] Menimcha, sen hali qaytmasliging (qaytib kelmasliging) kerak.

(4) “你过来”，他央求道。 [王小波 2007: 87] [“Nǐ **guòlái**”, tā yāngqíu dào] “Bu yerga kel”, deb yalindi.

(5) 林小姐，您起来啦？ [王小波 2007: 74] [Lín xiǎojiě, nín **qǐlái** la?] Lin xonim, o‘rniningizdan turibsizmi (uyg ‘onibsizmi)?

(6) 饭后我回到房里把二哥新买来的英文本《复活》翻开读了几十页。 [王小波 2007: 109] [Fàn hòu wǒ huí dào fáng lǐ bǎ èr gē xīn **mǎi lái** de yīngwén běn “fùhuó” fān kāi dúle jǐ shí yè] Tushlikdan so‘ng xonamga qaytib kelib, akam yangi sotib olib kelgan inglizcha “复活” (“Qayta tirilish”) kitobini ochib, bir necha o‘n varoq o‘qidim.

(7) 一方面因为这是自己第一次挣来的钱，另一方面却因为这是卖掉自己前程所得的代价。 [王安忆 2015: 123] [Yī fāngmìan yīnwèi zhè shì zìjǐ dì yī cì **zhēng lái** de qián, lìng yī fāngmìan què yīnwèi zhè shì mài diào zìjǐ qiánchéng suǒdé de dàiijià] Bir tomonidan, bu uning hayotida birinchi marta **ishlab topgan** puli bo‘lgani uchun, ikkinchi tomonidan, bu uning o‘z istiqbolini sotish bahosi bo‘lgani uchun.

Yuqorida keltirilgan materallarda model tarkibidagi harakat yo‘nalishi fe’li “来” hamda o‘zbek tilidagi yo‘nalish ma’nosini ifodalovchi *kelmoq* fe’li semantikasi, qo‘llanilishi va vazifasiga ko‘ra o‘xshash bo‘lsa-da, ular orasida ma’lum farqlar mavjud. “Fe’l+来” modeli o‘zbek tilida mustaqil harakat yo‘nalishi fe’li (3), -ga jo‘nalish kelishigi + fe’l (4), ba’zan Fe’l 1+ ravishdosh + Fe’l 2 (6) tuzilmasi yordamida ifodalanishi yoki butunlay boshqa fe’llar (5, 7) yordamida berilishi mumkin. Ko‘rinadiki, xitoy tilidagi fe’l-yo‘nalish modeli o‘zbek tilida murakkab ifoda ko‘rinishiga ega. Ba’zida xitoy tilidagi ayni turdagil fe’l-yo‘nalish modeli o‘zbek tilida turlicha shaklda namoyon bo‘ladi. Masalan, (1)-(3) misollardagi fe’l-yo‘nalish modeli “回来” yo‘nalish ma’nosiga ega ko‘chish hodisasini ifodalamoqda. Biroq o‘zbek tilidagi tarjimada *qaytib kelmoq*, *qaytmoq* tarzida tarjima qilindi.

Xitoy tilida yo‘nalish modifikatorlari gapda o‘zidan oldin kelayotgan fe’l bilan birikib, fe’l-yo‘nalish modelini hosil qiladi. Biroq yo‘nalish modifikatorlari va fe’l o‘rtasidagi munosabat ham murakkab tizimga ega. Chunki yo‘nalish modifikatorlari faqat semantik jihatdan o‘ziga mos fe’l bilan qo‘llanilishi kerak, aks holda mantiqiy nomutanosiblik yuzaga kelishi mumkin. Masalan, “热上来” (*isib ketmoq*, 热 *isimoq*, 上来 – bu yerda haroratning yuqoruga qarab ko‘tarilishiga ishora) deyiladi, biroq “热下来” (下来 – haroratning pasayishiga ishora) deyilmaydi yoki “坚持下来” (坚持 *qat’iy turmoq*, 下来 esa holatning davomiyligiga ishora) deyiladi, ammo “坚持上来” (上来 – yuqoriga ko‘tarilish, biror xususiyatning paydo bo‘lishiga ishora) deb aytilmaydi. Qisqasi, xitoy tili yo‘nalish modifikatorlari aniq morfologik shaklga ega emas. Shuningdek, o‘zbek tili sintaksisida 补语 (fe’l to‘ldiruvchisi) mavjud emas, shu bois o‘zbek tili grammatiskasida yo‘nalish modifikatori tushunchasi sintaktik bo‘shliq hosil qiladi. O‘zbek auditoriyasi uchun xitoy tili yo‘nalish modifikatorlari hamda fe’l-yo‘nalish modellarini o‘rganish va o‘rgatish muhim muammolardan biri sanaladi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagilarni xulosa qilish mumkin.

1. Xitoy tilida ko‘chish hodisasi 位移事件 [wèiyí shǐjiàn] ni ikki turga ajratish mumkin: a) tashqi ta’sirsiz voqelangan hodisa 自移事件 [zì yí shǐjiàn]; b) ta’sir ostida voqelangan hodisa 致移事件 [zhì yí shǐjiàn].

2. Xitoy tilida ko‘chish hodisasini ifodalashda nafaqat harakat jarayoni, balki harakatning aniq yo‘nalishiga, shuningdek, so‘zlovchining subyektiv nuqtai nazariga ham e’tibor qaratiladi.

3. 来 [lái] morfemasi ham yo‘nalish ma’nosini, ham subyektiv nuqtayi nazar vazifasini ifodalaydi. 来 yo‘nalish modifikatori yordamida so‘zlovchiga nisbatan subyektning ko‘chishi hodisasi ifodalanadi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Talmy L. Lexicalization patterns: semantic structure in lexical forms // Timoty Shopen, ed. Language typology and syntactic description, second edition. Vol. III. Grammatical categories and the lexicon. – Cambridge: Cambridge University press, 1985.
2. 王宜广. 现代汉语动趋式的语义框架及其扩展路径研究. – 北京: 中国社会科学出版社, 2016.
3. 王宜广, 宫领强. 由意义到形式: 汉语动趋式的功能转向. – 上海: 上海世界图书出版公司, 2017.
4. 王安忆. 老康回来 (王安忆短篇小说系列). – 上海: 上海文艺出版社, 2015.
5. 王小波. 王小波全集. 第八卷. – 昆明: 云南人民出版社, 2007.
6. Karimov, A. A. (2022). The Problem Of The Grammatical Category Of The Chinese Language. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 5, 226-229.

7. Каримов, А. (2010). Actual questions of China studying: Philology, philosophy, politics, economy and history.
8. Anvarovna, P. N. S. (2022). PHILOLOGY STUDENTS FOREIGN LANGUAGE INTERCULTURAL COMPETENCE DEVELOPMENT IN TEACHING CHINESE LANGUAGE: RESULTS OF EXPERIMENTAL TEACHING. 湖南大学学报 (自然科学版), 49(03).
9. Дана, К. А. (2020). ВЛИЯНИЕ ФИЛОСОФИИ УСИН НА ЭТИМОЛОГИЮ И СЕМАНТИКУ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ ОТДЕЛЬНЫХ ГРУПП СЛОВ). In Россия-Китай: история и культура (pp. 35-40).
10. Рихсиева, Г. Ш. (2014). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ РЕЙТИНГИ-СИФАТ ВА ТАРАҚҚИЁТ ОМИЛИ. *Oliy ta'lism taraqqiyoti istiqbollari= Perspectives of higher education development= Перспективы развития высшего образования: To 'plam № 2/ma'sul muharrir MA Rahmatullayev.–Издательство: Vita Color T.: 2014.–161 b, 29.*
11. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
12. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
13. Khalmurzaeva, N. T. (2021). Stereotypical Questions In The Organization Of The Process Of Teaching Children By Japanese Mothers. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 513-520.
14. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究:协同和一体化。In 上合组织国家的科学研究:协同和一体化, 87, 0